

**TRADITION, INNOVATION, AND MASTERY IN THE POEMS (QITA) OF AVAZ OTAR****Salomat Matkarimova***Associate Professor of Urgench State University**Doctor of science in Philology**Email: [smq777999@gmail.com](mailto:smq777999@gmail.com)**Urgench, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** qita, tradition, innovation, mastery, theme, idea, imagery, "faloni" cycle.**Received:** 15.05.26**Accepted:** 16.05.26**Published:** 17.05.26**Abstract:** This article analyzes the issues of tradition, innovation, and mastery in Avaz Otar's poetry. It demonstrates that Avaz's poems (qita) are distinguished by a high level of mastery in their themes, ideas, imagery, and poetic figures. The article argues that the poet not only continued but also developed the traditions of Alisher Navoi. Using manuscript sources, it also addresses the shortcomings of Avaz Otar's previously published poems. Based on examples from Avaz's works, substantiated conclusions are drawn.**AVAZ O'TAR QIT'ALARIDA AN'ANA, YANGILIK VA MAHORAT MASALALARI****Salomat Matkarimova***Urganch davlat universiteti dotsenti,**Filologiya fanlari doktori.**E-mail: [smq777999@gmail.com](mailto:smq777999@gmail.com)**Urganch. O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** an'ana, yangilik, mahorat, mavzu, g'oya, tasvir, "faloni" sikli.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Avaz O'tar she'rlaridagi an'ana, yangilik va mahorat masalalari tahlil qilinadi. Unda Avaz she'rlari mavzular, g'oyalar, tasvirlar va she'riy obrazlarda yuqori darajadagi mahorat bilan ajralib turishi ko'rsatilgan. Maqolada shoir nafaqat Alisher Navoiy an'alarini davom ettirgani, balki rivojlantirgani ta'kidlanadi. Qo'lyozma manbalaridan foydalangan holda, Avaz O'tarning ilgari nashr etilgan she'rlaridagi kamchiliklarga ham to'xtalib

o‘tiladi. Avaz asarlaridan keltirilgan misollar asosida asosli xulosalar chiqariladi.

## ВОПРОСЫ ТРАДИЦИЙ, НОВАТОРСТВА И МАСТЕРСТВА В КИТЪХ АВАЗА УТАРА

*Саломат Маткаримова*

*Доцент Ургенчского государственного университета*

*Доктор филологических наук*

*Электронная почта: [smq777999@gmail.com](mailto:smq777999@gmail.com)*

*Ургенч, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

<b>Ключевые слова:</b> традиция, новаторство, мастерства, тематика, идея, образная система, цикл “фалони”.	<b>Аннотация:</b> В данной статье анализируются вопросы традиции, новаторства и мастерства в стихах Аваза Утара. Показано, что китъи Аваза отличаются высоким уровнем мастерства в тематике, идеях, образной системе и поэтических фигурах. В статье аргументировано, что поэт не только продолжил, но и развил традиции Алишера Навои. Также на основе рукописных источников устранены недостатки, допущенные в ранее публиковавшихся стихотворениях Аваза Утара. На основе примеров из произведений Аваза сделаны обоснованные выводы.
--	--

**Kirish.** Avaz ijodidagi qit’alar ham o‘zbek adabiyoti xazinasiga qo‘shilgan munosib hissadir. Avaz O‘tar qit’alarida shoirning dunyoqarashi, mavjud ijtimoiy-siyosiy hayotga nisbatan pozitsiyasi hamda turli ijtimoiy tabaqa vakillariga munosabatlari badiiy tarzda o‘z ifodasini topgan. Ularda Alisher Navoiyning qit’anavislikdagi an’alarini izchil davom qildirilishi barobarida qator yangiliklar bilan boyitib, yuksak mahorat namoyish qila olgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi shoir qit’alarida an’ana, yangilik va mahorat masalalarini tadqiq qilishdan iborat. Tadqiqot vazifasi sifatida qit’alarni qiyosiy-tarixiy, germenevtik usullar asosida har tomonlama chuqur tadqiq qilish hamda shu kungacha amalga oshirilgan nashrlarda yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklarni qo‘lyozma devonlarga tayanilgan holda tuzatish belgilab olindi.

Adabiyotshunoslikda Avaz O‘tar qit’alari yuzasidan ayrim fikr-munosabatlar bildirib o‘tilgan. Jumladan, A.Hayitmetov Avazni Navoiydan keyin eng ko‘p qit’a yozgan shoirlardan biri sifatida e‘torof etgan bo‘lsa [6, 46], N.Qobulov shoirni o‘zbek adabiyoti tarixida Navoiydan keyin “falon” siklidagi satirik uslubni yana-da rivojlantirishga muhim hissa qo‘shganligini alohida ta’kidlaydi [4, 21]. M.Yuldasheva o‘z tadqiqotida nashrlarda 1.2.3. raqamlari ostida berilgan

“Sipohi pora istar”, “Biling, ushbu zamon g‘amnokidurman”, “Eshon degani libosi malla” deb boshlanuvchi she‘rlar Avaz devonlarining hech birida uchramasligini, bu kabi she‘rlar noto‘g‘ri tadqiq natijasida Avazga nisbat berilganligini qayd qiladi va shoirning joriy nashrga kiritilmagan “Eyki, davlat topmoq bo‘lsa maqsuding olam aro” boshlanmali qit‘asi (devondagi 6-qit‘a)ni tahlilga tortadi [7, 25]. Qayd qilish lozimki, mazkur olimlar ishlarida biz yuqorida tadqiqot maqsadi qilib belgilagan masalalar chuqur o‘rganilmagan.

Asosiy qism. “Avaz Navoiydan keyin eng ko‘p qit‘a yozgan shoirlardan biridir. U bu janrni yana-da taraqqiy ettirib, yuqori pog‘onaga ko‘taradi” [6, 46]. Shoirning 942-raqamli devonida 28 qit‘a mavjud bo‘lib, 26 tasi nashr etilgan. Avazning nashr etilmagan yana bir qit‘asi “La‘nat ul bebok bebunyod-u begumroh g‘akim” deb boshlanuvchi 8-qit‘a bo‘lib, matnini quyida keltiramiz.

“Sharq poetikasida kichik hajmdagi qit‘alar “ali ul-taloq qit‘a”, to‘rt baytdan ortiqlari esa “qit‘ayi kabir” deb nomlangan. “Ali ul-taloq qit‘a” – fasohatli, xushbayon va muxtasar ma‘nolarni bildiradi”[10]. Tuzilish jihatidan Avaz qit‘alarining 4 tasi “qit‘ayi kabir”lar sirasiga kiradi. Nashrlarda “Faloni zohidi xudbinki...” boshlanmali qit‘asi 4 bayt holida berilgan bo‘lsa-da, aslida “Ali ul-taloq qit‘a” emas. Chunki, bu qit‘aning bir bayti nashrlardan tushib qolgan. Shoir asosan 2 yoki 4 baytli “Ali ul-taloq qit‘a”lar yaratgan. Bu qit‘a janrining xarakteri - poetik ruhi bilan ixchamlikka, konkretlikka aloqadorligi, badiha tarzida aytilishi hamda shoirning kichik hajmga katta mazmunni sig‘dirish orqali o‘z badiiy mahoratini namoyish qilish istagi bilan izohlanadi. Shoir qita‘larini mavzu jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ishqiy mavzudagi qit‘alar.
2. Ijtimoiy-falsafiy mavzudagi qit‘alar.
3. Axloqiy-ta‘limiy mavzudagi qit‘alar.

Avazning ishqiy mavzudagi qit‘alari ham oshiqqa tavsiya xarakterida bo‘lib, ularda zohiran oromijon bo‘lgan mahvashning asli ma‘nida nooshno, nomehribonligi, oshiqqa munosabatda nosamimiyligi ochib beriladi, atvori jafo-u javr-u zulm, vafosizlik bo‘lgan gulruxlar oshiq boshiga baloi nogahon sifatida talqin qilinadi va bunday sevgili sho‘x dildor ishqini tark qilmoq yaxshiligi uqtiriladi. Xususan, Avazning “Jahon mahvashlarikim, zohiran oromi jondurlar”, “Qay-u oshiqni bo‘lsa bemuhabbat, bevafo yori” boshlanmali qit‘alari bu jihatdan e‘tiborlidir. Shoirning ishqiy mavzudagi bir qit‘asi quyidagicha yakunlanadi:

Alor sorig‘a mayl-u rag‘bat etmang hargiz, ey ahhob,  
Ki onlar boshingizga bir baloyi nogahondurlar.  
Jafo-u javr ila zulm o‘lg‘ali gulruxlar atvori,  
Vafo ahli fano koshonasi ichra nihondurlar [8, 305b].

Avazning ijtimoiy-falsafiy mavzudagi qit‘alarida Navoiyning falakning kajravligi xususidagi fikrlari rivojlantiriladi. Muallif falakning olam ahli boshiga turli balo-yu sitamlar

yog‘dirib, bori el jon-u molin yoqqan o‘tida o‘zining yonmasligini ta’kidlash bilan zolim dunyoning o‘z mehmonlarini kuzatib, yangi mehmonlarni kutib olishining davomiyligiga ishora qiladi:

Falakkim, ey birodar, hech bir odamga vafo qilmas,  
Dame yo‘q sokinin domi baliyatdin raho qilmas.  
Qilib nokom doim ahli siddiq-u muhabbatni,  
Ki to jon bermaguncha maqsudi komin ravo qilmas.  
Demay oni nechuk man bevafo, bedodgustarkim,  
Vafo ahlin murodin shohidig‘a oshno qilmas.  
Bori el jon ila molin hasad o‘ti bila yoqib,  
Ajoyibkim, o‘zi ham ushbu o‘t taxtida yoqilmas [8, 305b].

Avazning axloqiy-ta’limiy mavzudagi qit‘alari nokaslarga nisbatan keskin munosabat va nafrati ifodasidir. Shoir ularda bor bo‘lsa ko‘rolmaydigan, yo‘q bo‘lsa berolmaydigan, birovni xurram etolmagani holda kishining shodligidan g‘ayrlanadigan hosidpesha, badxoh, yuzi qaro shum raqiblarni, odati aybgo‘liq bo‘lgan kimsalarni Haq la‘natiga munosib kimsalar sifatida talqin qiladi, ularni qatl etish esa Haq taolo rahmatiga nasib bo‘lishga vasila bo‘lishidan so‘zlaydi, ba‘zan bu kabi kimsalarni “iloho, et habibing hurmatidin yer bilan yakson” deya Allohga yolvoradi. Shoir insof-u diyonatdan yiroq kishilarni yomonlarning yomoni, bechora darmondalarga javr-u ozor beruvchilarni shum-u badbaxt, fitna-fasodni kasb qilib, el aybini ochishga odatlanganlarni bebok-u bebunyod-u begumroh, alfozi yolg‘on, qabih atvor kishilarni loyiqi dor deb biladi. Bundan shoir qit‘alarni hayotdagi biror voqea-hodisa yoki shaxs bilan to‘qnashuvi munosabati bilan yozganligi oydinlashadi:

La‘nat ul bebok bebunyod-u begumrohg‘akim,  
Borho kiyn-u nifoq oyinidur atvor anga.  
Elni aybi pardasini pora qilmoqliq davom,  
Sarzanish chekkonidin bo‘lmishdurur kirdor anga.  
Qatl qilsa yaxshiroq erdi chu o‘t shahnasi,  
Yetkurub yuz ming uqubatlar bila ozor anga [8, 305a].

“Alisher Navoiy asos solgan “falon” uslubi qit‘achilikda o‘ziga xos alohida janr bo‘lib shakllandi... Avaz O‘tar o‘zbek adabiyoti tarixida Navoiydan keyin “falon” siklidagi satirik uslubni yana-da rivojlantirishga muhim hissa qo‘shgan shoirlardan biridir” [4, 21]. Darhaqiqat, “bu she’riy formaning namunalari dastlab Navoiy ijodida uchraydi. Bunday asarlarda obyekt qilib olingan shaxsning kimligi pardalab o‘tiladi. “Faloniy” turkumi Avaz merosida ham bor” [5, 358]. Avazning 14 ta qit‘asi shu uslubda yaratilgan. Uning quyidagi qit‘asi Navoiyning “G‘alat bitir

kotib bobida qalam surmag-u qorasining g'alatin yuziga kelturmak" sarlavhali qit'asi ta'sirida yozilgan:

Falon kotibki, ilki sinsun oni xat yozsa nogah,  
Qo'yub "imon"ni alifin harfi avvaldin "yamon" aylar.  
Yozar alfozini yo bo'lmayin ma'nisidin ogah,  
Ki yozg'on harfidin aksi iborotni ayon aylar [8, 306a].

Bunda o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan qaraydigan kasbiga nomunosib kotiblar tanqid ostiga olingan. Kotibning yozayotgan so'z ma'nosini bilmasligiga e'tiborni qaratish orqali uning e'tiborsizligi, o'z ustida ishlamasligi, savodsizligi, ilmsizligini ta'kidlaydi. Zero, kotib kitob muallifi va uni o'quvchi kitobxon o'rtasida turadi. Uning bitta xatosi ijodkor yoki olimning mehnatini yo'qqa chiqaradi va kitobxonni yaxshi asardan, nodir kashfiyotdan mahrum qiladi. Uning ishga sovuqqonligi ham muallifga, ham kitobxonga, ham o'ziga hurmatsizlikdir. Avazning yuqoridagi qit'asida ko'zlangan maqsad kotibga jamiyatning ma'naviy hayotidagi o'rnini anglatish, kotiblikka mas'uliyatsizlik bilan yondashish oqibatlarini tushuntirish va o'z kasbiga munosib bo'lishga chaqirishdir.

Shoirning "Falon bozilg'a bo'lsun dashnom uza dashnom" boshlanmali qit'asida shoirning nafrati faqr ahliga javr aylab, boylarga in'om-u tuhfalarga peshkash qiluvchi, ochlarga bermay noz-u ne'matlar ichida yashayotgan tana'um ahli oldiga ne'mat qo'yuvchi, din ahli o'rniga kuffor elini mehmon qiluvchi "saxovatpesha"larga qaratiladi. Shu o'rinda aytish lozimki, qit'aning "Olur kuffor elidin olmayin din aholidin mehmon, / Nechuk qolg'ay anga barbod bo'lmay or-u nang-u nom" bayti nashrlarga kiritilmagan. Shoir ushbu qit'a mazmuniy mundarijasida Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonining 5-maqolotidagi (Karam vasfida) quyidagi baytlar ta'siri seziladi:

Bermagida mar'i erur e'tidol,  
Lek emas mavqiida bazli mol.  
Yoyar anga supraki, ul och emas,  
Berur anga to'nki, yalang'och emas.  
Mushtahi el yuz esa non bergali,  
Luqma toturmas tilabon mumtaliy [1, 153].

Avazning "Falon bedard o'zin qotgusi dard ahli qatorig'a, / Hamonokim magas qilg'on kibi shahboz ila parvoz" boshlanmali qit'asida o'zini oshiq sanagan bulhavaslar shahboz bilan samoga ko'tarilishga uringan chivin(magas)ga, shunqorga bahs etib uchishga shaylangan jo'ja(tovuq)ga qiyoslanadi. Bu bilan uning bu ishi faqat og'izda bo'lgan, amalga oshmaydigan samarasiz harakatligiga ishora qilinadi. Ushbu qit'a Navoiyning "Mahbubu-l-qulub" asarida dard ahliga bag'ishlangan 24-tanbehdagi soxta dardnoklarga qaratilgan bayti bilan hamohang: "Kecha ish nar qurt zabona ishin qilmas va ko'palak parvona ishin bilmas. Bayt:

Kishi o‘zin yasag‘on birla bo‘lurmu oshiq,  
Subhi kozib yorumas, o‘ylaki, subhi sodiq” [2, 85].

Shuningdek, “Falon ahmaqki, bergusi hamisha o‘ziga oro, / Hamonokim, olib ilkiga bir ko‘zgu nisooso” boshlanmali qit‘asida ayollar kabi orolanib yuruvchi, kiyimiga tekkan g‘uborni sovun tugaguncha yuvib, boshqa birovning qo‘li tekkan narsaga jirkanib, ilkini tekkizmaguvchi nodon-u siflalar tanqid qilinib, bundaylarga oxir-oqibat tuproq ostiga kirishi eslatiladi. Bunda “Mahbub ul-qulub”dagi 2-tanbehda aytilgan “Eranlar yasanmog‘ikim, namoyish uchundur, xotinlar bezanmagidekdurki, oroyish uchundur” [2, 71] so‘zlaridagi mazmunga yaqinlik seziladi.

Shoirning adresatni pardalovchi “faloni” so‘ziga ma‘nodosh tarzda ishlatgan “Ul odamkim”, “Ul kishikim” kabi boshlanmali qit‘alari ham mazmunan “faloni” turkumiga aloqador. Shoir hasadgo‘y kimsalar obyekt qilib olingan quyidagi qit‘asida hosid, badxohlarning hasad o‘ti boshqalarga zarar bergani kabi o‘zlarining ham bag‘irlarini yoqib kabob qilishi, o‘zlari boshqalarga xursandlik berolmagani ustiga birovning quvonchini ham ko‘ra olmasliklarini, ichiqoraliklarini ayovsiz fosh qilib, yuzi qarolar tarzida talqin qiladi:

Ul odamkim, hasad g‘ayrig‘a aylar kecha-yu kunduz,  
Qilib rashk-u taassufni o‘tig‘a bag‘rini biryon.  
Agarchi ilgidin kelmas birovni xurram etmaklik,  
Ko‘ra olmas valekin kimsani qalbi esa shodon.  
Bu yanglig‘ hosid-u badxoh-u ham yuzi qarolarni,  
Iloho, et habibing hurmatidin yer bila yakson [8, 307b].

Ushbu qit‘a bilan Navoiyning fuzul el bobida yozgan qit‘asi orasida yaqinlik bor: unda ham xalq bilan orasi tuzalmaydigan, elga bir yaxshilik qilishga yaramaydigan kimsalar shoirning nafratiga nishon:

Falong‘a ajab hol erurkim xaloyiq  
Ne qilsa alar birladur mojarosi,  
Sola olmas el oshig‘a bir nuxud, gar -  
Tuzalmas aning birla ul el arosi.  
Qazon yo‘qki, ul anda kafliz emastur,  
Ki, bo‘lsun yuziga qazonlar qarosi [3, 694].

Avaz “faloni” turkumidagi qit‘alariga katta g‘oyaviy yuk qo‘yib, har birida o‘z davridagi salbiy bir tipni badiiy talqin qiladi. “Avaz O‘tar “Falon” obrazi vositasida muayyan xulq-atvorga ega obrazlar tizimini shakllantirib, o‘z davri muammolarini yashirin, ammo muayyan adresatlarga yo‘naltirilgan tarzda ochib bergan” [9, 67]. Navoiy “Mahbubu-l-qulub” asarida har tabaqa vakiliga to‘xtalarkan, o‘z kasbiga nomunosib kishilarni nuqs-u kamchiliklarini bayon qilib o‘tgani kabi, Avaz mazkur turkumdagi qit‘alarida jamiyatning turli qatlamlariga nazar tashlab, oliynasab

johillar, zolim sultonlar, xudbin ahli taqvo, zohidlar, kishilar orasiga nifoq urug'ini sochuvchi suxanchin-u birovlarning moliga qasd qiluvchi tarror(kisavur o'g'rilar)lar, sarroflarlarni o'tkir hajv ostiga olib, kirdikorlarini beayov fosh etadi. Ushbu qit'alar hayotiy real kishilar xarakteridagi salbiy jihatlar umumlashma tarzida berilgan g'oyaviy kuchli, badiiy barkamol asarlardir.

Avaz qit'alari davrning muhim masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Ularda axloq-odob masalalari yoritiladi, jamiyatning turli tabaqasiga mansub kishilarning qilmishlari fosh etiladi, ularning nomi aniq atalmay, "falon", "ul kishi", "ul odam", "andoq odam", "ikki odam" kabi izohlovchilar, sifatlovchilar bilan nomlanib, tanqid qilish nuqtayi nazaridan shaxsning umumlashma obrazi yaratiladi. Ushbu qit'alar shoirning davr ma'naviy hayotiga, jamiyatdagi ayrim kishilarning kirdikorlariga, sajjiyasidagi salbiy sifatlarga hozirjavoblik bilan munosabat bildirishi, umumlashma va xulosalovchi ma'no ifodalashi jihatdan o'z davri hayotida alohida o'ringa ega bo'lgan. Ular "ma'no va mohiyat oynasi, shoir ehtirolari quyulib, fikrda teranlik kuchaygan holati yoki shu holatlar hosilasi erur" [10].

Xulosa qilib aytganda, Avaz O'tar qit'alarida Alisher Navoiy ijodidagi axloqiy, falsafiy mazmun va g'oyani tadrijiy davom ettirib, o'z davri talablaridan kelib chiqib rivojlantirgan holda ularga davr ruhini singdirib yuboradi va qator ijtimoiy masalalarni badiiy ifodalaydi. Ishqiy mavzudagi qit'alarida ham davrning u yoki bu masalasi sevgi bilan bog'liq his-tuyg'ular orqali ifodalanadi. Shoir chuqur falsafiy-poetik fikr ifodalangan qit'alarida o'z davri sharoiti bilan bog'liq holda real hayotdagi ayrim haqsizliklarni badiiy xulosalarda berib, zamonga o'z munosabatini bildiradi. "Ul kishikim", "Ul odamkim" boshlanmali va "Faloniy" turkumidagi qit'alarida kishilardagi salbiy xususiyatlarga nafrati aks etgan bo'lib, ular shoirning o'z davridagi nosog'lom muhit hamda turli masalalar borasidagi pozitsiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 7-том. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 14-том. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011.
4. Қобулов Н. Навоий ва Хоразм шоирлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. – № 2. – Б.21.
5. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 5-том. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.358.
6. Ҳайитметов А. Аваз лирикасида жанр ранг-баранглиги. // Адабий меросимиз уфқлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б.46.

7. Юлдашева М. Аваз шеъриятида анъана ва маҳорат: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент: 2006. – Б. 25.

8. عوض ديوان ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти кўлғезмалар фонди. Инв. рақам: №942.

9. Tojiboyeva O. “Tarje’bandi xomisa” Alisher Navoiyga izdoshlik mahsuli. // Oltin bitiglar - Golden Scripts. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 67.

10. [https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul\\_qita-va-gazal-munosabatiga doir.html](https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul_qita-va-gazal-munosabatiga_doir.html).